



DIDACTIC PROVISION OF DISTANCE LEARNING OF FIRE SAFETY

Roziev Rustam Ruzimurodovich

Bukhara Regional Department of Emergency Situations

Freelance researcher at Bukhara Engineering and Technology Institute

+ 99897306-17-78

Abstract

The article examines the educational requirements of students in the field of fire safety, technical support for distance learning, available opportunities and conditions, student activities and daily routine, and other aspects of education. Based on the results, the importance of planning distance learning courses, choosing learning technologies was emphasized. The distance learning course on fire safety reveals the essence of the androgynous approach, with a comparative analysis of the organization of the educational process of adults and youth and some of its features.

Keywords: fire safety, ensure fire safety, distance learning, distance learning course, didactic support, means of information and communication technologies, the Internet

Annatatsiya

Ushbu maqolada yong'in xavfsizligi sohasida ta'lim oluvchilarning bilim olishga qo'yilgan talablari, masofaviy o'qishning texnik ta'minoti, mavjud imkoniyatlari va sharoitlari, ta'lim oluvchilarning ish faoliyati va o'qishning kunlik rejimlari va boshqa jihatlarini o'rganish natijalariga ko'ra masofaviy o'qitish kurslarini rejalashtirish, o'qitish texnologiyalarini tanlash ahamiyati yoritilgan. Yong'in xavfsizligi bo'yicha masofaviy ta'lim kursida katta yoshdagi va yoshlarning o'quv jarayonini tashkil etish va unda ayrim o'ziga xos xususiyatlarini qiyosiy tahlil etib, androgogik yondashuv mohiyati ochib berilgan.

Аннатация

В статье рассматриваются образовательные требования обучающихся в области пожарной безопасности, техническое обеспечение дистанционного обучения, имеющиеся возможности и условия, деятельность обучающихся и распорядок дня, а также другие аспекты обучения. На основе полученных результатов была подчеркнута важность планирования дистанционных учебных курсов и выбора технологий обучения. При этом на дистанционных учебных курсах по пожарной безопасности раскрыта сущность андрогенного подхода, с применением



сравнительных анализов, некоторых его особенностей организации образовательного процесса взрослых и молодежи.

Kalit so'zlar: yong'in xavfsizligi, yong'in xavfsizligini ta'minlash, masofaviy ta'lim, masofaviy ta'lim kursi, didaktik ta'minot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari, Internet tarmog'i.

Ключевые слова: пожарная безопасность, обеспечение пожарной безопасности, дистанционное обучение, дистанционный учебный курс, дидактическое обеспечение, средства информационно - коммуникационных технологий, интернет

Kirish. So'ngi yillarda aholi va hududlarni yong'in xavfidan himoya qilish bo'yicha aniq maqsadlarga qaratilgan chora – tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Respublikamizda yong'in xavfsizligi holatini ta'minlashning sifatli va samarali faoliyatini ta'minlab beruvchi asosini mustahkamlash va takomillashtirish maqsadida, bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etildi. Qabul qilingan me'yoriy huquqiy hujjatlarda aholining favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'inlar profilaktikasi bo'yicha tayyorgarligini oshirish hamda faol ishtirokini ta'minlash vazifasi ustivorligi belgilandi. Jumladan aholini tayyorlash innovatsion texnologiyalarni uyg'unlashtirilgan hamda masofadan o'qitish uslublarini zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda, shuningdek, mustaqil o'rganish orqali amalga oshirilishi dolzarb vazifa sifatida ko'rib, fuqarolarda favqulodda vaziyatlar, shu jumladan, yong'inlarga olib keladigan omillarni barvaqt aniqlash va bartaraf etish, ular sodir bo'lganda to'g'ri harakat qilish usullarini o'rgatish kompleksi yondashuvini talab etadi [1].

Materiallar va usullar. Yong'in xavfsizligini ta'minlash, fuqarolarning yong'in va uning oqibatlaridan himoyalanganlik holati ko'p jihatdan insonlarning yong'in xavfsizligi sohasidagi bilim, ko'nikmalariga chambarchas bog'liq. Yong'in xavfsizligi sohasida o'qitishning yuqori sifatini ta'minlash uchun o'quv va pedagogik nazariyalardan foydalangan holda pedagogik spesifikatsiyalarni tizimli ishlab chiqishni talab etadi. Sohada o'qitish ehtiyojlar va ta'lim maqsadlarining tahlilidan boshlab bu ehtiyojlarni qondirish uchun o'qitish tizimini ishlab chiqishgacha barcha jarayonlarni qamrab olishi zarur [2].



Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ta'lim jarayoniga kirib kelishi an'anaviy o'qitish usullariga qo'shimcha ravishda yangi o'qitish shakli - masofaviy o'qitish yaratilishiga omil bo'ldi.

Yong'in xavfsizligi sohasida masofaviy o'qitish tizimidan foydalanish o'quv materiallarini va faoliyat turlarini hamda metodlar va vositalarni ishlab chiqishni ko'zda tutadi, ya'ni bunda o'qitish tizimi komponentlarining ko'proq qismi dizayni, loyihalashtirilishi to'g'risida fikr yuritilmoqda.

Bizning fikrimizcha, masofaviy kurslarni tashkil etishda, didaktikaning qoidalari sifatida Kimni o'qitish kerak?, Nimani o'qitish kerak?, Qanday o'qitish kerak? degan savollarga o'z o'rnida va o'z vaqtida javob topish jiddiy ahamiyatga ega [3].

Mazkur savollarga o'z o'rnida va o'z vaqtida to'g'ri javob topish yong'in xavfsizligi sohasida o'qitish tizimining turli xil bosqichlarida turlicha bo'ladi, shuning uchun masofaviy kurslar kimlar uchun tashkil etilayotganligi va ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ahamiyatli jihati shundaki, ta'lim oluvchi xususiyatiga ko'ra o'quv-metodik materiallar ishlab chiqilishi, o'qitish usullari tanlanishi zarur, sababi, avval boshidan to'g'ri yo'nalish olish butun kurs samaradorligini ta'minlashga ta'sir ko'rsatadi. Yong'in xavfsizligi sohasidagi bilimlar majmuasidan kelib chiqib, masofaviy ta'lim tizimidagi katta yoshdagilar va yoshlarning o'quv jarayonini tashkil etish va unda ayrim o'ziga xos xususiyatlarining qiyosiy tahlilini quyidagi jadval misolida ko'rib chiqamiz.

Katta yoshdagilarning ta'lim olishining o'ziga xos xususiyatlari	Yoshlarning ta'lim olishining o'ziga xos xususiyatlari
O'quv dastur katta yoshdagilarning ehtiyojlari va qiziqishlari asosida ishlab chiqiladi.	O'quv dastur avvaldan ma'lum bo'lgan, chegaralangan bilimlar doirasida ishlab chiqiladi
O'quv dastur hajmi ob'ektiv (yangi ma'lumotlarni kiritish) va sub'ektiv (ehtiyollar, muammolar) sabablarga ko'ra qisqarishi, kengayishi, o'zgarishi mumkin.	Yoshlar ta'limida o'quv dasturlar va ularda o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar asosan o'zgarmas hisoblanadi.
Katta yoshdagilar kasbiy faoliyatga doir xususiy muammolarni bartaraf etishga harakat qiladi.	Yoshlar o'qituvchi tomonidan qo'yiladigan umumiy muammolarni yechishi mumkin.
O'qitish katta yoshdagilarning kasbiy va hayotiy ehtiyojlariga va amaliy faoliyatiga yo'naltiriladi.	O'qitish yoshlarning darsliklarda mavjud bo'lgan bilimlarni majburiy o'rganishiga yo'naltiriladi
O'zining shaxsiy tajribasi asosida o'qiydi va tajribasini yanada oshirish uchun kerakli ma'lumotlar olishga harakat qiladi.	O'qituvchi va boshqalarda mavjud bo'lgan tajribalarni o'zlashtirish orqali shaxsiy tajribalar shakllantiriladi.
Katta yoshdagilar kasbiy faoliyatida qo'llash uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtiradi.	Yoshlar faqat mashg'ulotlarda majburiy o'rganishi lozim bo'lgan, cheklangan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtiradi.
O'qish jarayonida asosiy e'tibor faoliyatini takomillashtirish, kasbiy ehtiyoj va qiziqishlarini qondirishga qaratiladi.	O'qish jarayonida asosiy e'tibor sinovlar va imtihonlarni yaxshi topshirish, yaxshi baholar olishga qaratiladi.
Kattalar ta'limida o'qituvchilar yangi bilim va ko'nikmalarni egallashda yo'naltiruvchi, maslahatchi bo'lib xizmat qiladi.	Yoshlar ta'limida o'qituvchilarning o'zlari asosan yangi bilimlar manbai bo'lib xizmat qiladi va ular asosiy bilimlarni beradi.
O'quv jarayonida bilim va ko'nikmalar o'zlashtirilishi bilan amaliyotda qo'llaniladi	O'qish jarayonida o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni kelajakda qo'llash nazarda tutiladi.



Shuning uchun yong'in xavfsizligi sohasida masofaviy o'qitish kurslarini tashkil etishda o'qitish tizimining bosqichlarida ta'lim olishga qo'yilgan talablarga ko'ra "Kimni o'qitish kerak?", "Nimani o'qitish kerak?", "Qanday o'qitish kerak?" degan savollarga javob topish maqsadida amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish, ya'ni o'quv-metodik materiallarni ishlab chiqish, masofaviy o'qitish modellari va usullarini tanlash zarur [3]. Shuningdek, ta'lim oluvchilar auditoriyasi va ularning yosh xususiyatlari, masofaviy shaklda kunlik o'qishi mumkin bo'lgan imkoniyatlari, sharoitlari hamda masofaviy ta'lim tizimining har biri bosqichining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib chiqish va ularning natijalarini tahlillariga ko'ra masofaviy kurslarni tashkil etishni rejalashtirish zarur [4].

Natija va munozaralar. Bizning fikrimizcha, ta'lim oluvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda - bilim olishga qo'yilgan talablar, masofaviy o'qitish uchun texnik jihatdan ta'minlanish holati, mavjud imkoniyatlari, sharoitlari, ish faoliyati va o'qitishning kunlik rejimlari va boshqa jihatlarni o'rganish natijalariga ko'ra masofaviy o'qitish kurslarini rejalashtirish, o'qitish texnologiyalarini tanlash jiddiy ahamiyatga ega. Masofaviy o'qitish kurslariga jalb etiladigan ta'lim oluvchilarning yuqorida ta'kidlangan o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib chiqish uchun birinchi navbatda yong'in xavfsizligi sohasida tegishli ta'lim oluvchilar auditoriyasini tanlash kerak.

Yuqoridagilarga asoslanib, yong'in xavfsizligi sohasida "masofadan o'qitish" jumlasini "Yong'in xavfsizligi bo'yicha masofaviy ta'lim" jumlasiga almashtirish maqsadga muvofiqdir. Yong'in xavfsizligi bo'yicha masofaviy ta'lim kursiga ta'lim oluvchilar auditoriyasi sifatida katta yoshdagi ta'lim oluvchilar jalb etiladi va bunda androgogik yondashuvdan foydalaniladi.

Yong'in xavfsizligi bo'yicha masofaviy ta'lim kurslarini tashkil etish uchun avval quyidagi holatlar tahlil qilinishi lozim:

- yong'in xavfsizligi bo'yicha masofaviy ta'lim kursining maqsadi va vazifalari to'g'ri qo'yilishi;
- yong'in xavfsizligi bo'yicha masofaviy ta'lim kursiga jalb etiladigan ta'lim oluvchilarning imkoniyatlari, sharoitlari, asosiy ish joyidan ajralmagan holda masofaviy o'qitish imkoniyati;
- ta'lim oluvchilarning tajribasi, kasbiy ehtiyojlari, qiziqishlari, ish joyining xususiyatlari kabi omillariga ko'ra tabaqalashtirish;
- ta'lim oluvchilarning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra masofaviy o'qitish modellari, texnologiyalari, shakllarini to'g'ri tanlash;
- masofaviy kursga jalb etilgan ta'lim oluvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari, Internet tarmog'idan foydalanish ko'nikmasiga egaligi holati;



- masofaviy kursning mazmuni ta'lim oluvchilarning tayyorgarlik darajasi, yoshiga mosligi;
- masofaviy kurs o'quv jarayoni sifat va samaradorligini baholash indikatorlari ta'lim oluvchilarning o'ziga xos xususiyatlariga mosligi.

Shu kabi holatlar to'g'ri tahlil qilinmasligi va o'z vaqtida to'g'ri qaror qabul qilinmasligi tashkil etilgan masofaviy kurslarning umumiy samarasiz bo'lishiga va juda ko'plab muammolar yuzaga kelishiga olib keladi.

Masalan, ***yong'in xavfsizligi bo'yicha masofaviy ta'lim kursiga jalb etiladigan ta'lim oluvchilarning imkoniyatlari, sharoitlari, asosiy ishdan ajralmagan holda masofaviy o'qish imkoniyati o'rganilmasdan masofaviy kurs tashkil etilsa*** -o'quv jarayoni davomida ta'lim oluvchi mashg'ulotlarda faol yoki umuman ishtirok etolmasligi mumkin, ***ta'lim oluvchilarning tajribasi, ehtiyojlari, qiziqishlari, ish joyining xususiyatlari kabi omillariga ko'ra tabaqalashtirilmashligi*** — ta'lim oluvchini maqsadsiz, keraksiz yoki uning uchun zaruriyati juda past bo'lgan bilimlarni olishga jalb etish mumkin, ***masofaviy kursga jalb etilgan ta'lim oluvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari, Internet tarmog'idan foydalanish ko'nikmasiga egaligi holati o'rganilmasligi***-ta'lim oluvchining masofaviy kursda belgilangan vazifalarni bajarishni uddalay olmasligi ya'ni o'quv materiallarni o'zlashtirishda, topshiriqlar javoblarini tizimga yuklash, forum, veb-seminarlarga qo'shilish, ishtirok etish va boshqa vazifalarni talab darajasida bajarmasligi mumkin.

Bu kabi muammoli vaziyatlar tahlil bosqichida avvaldan ko'rib chiqilgan va o'qish samaradorligini ta'minlash maqsadida to'g'ri qarorlar qabul qilingan bo'lishi zarur. Yuqorida ta'kidlangan yoki boshqa turli xil sabablarga ko'ra ta'lim oluvchilarni maqsadli guruhlashtirishni rejalashtirish mumkin. Maqsadli guruhlarni to'g'ri rejalashtirish-yong'in xavfsizligi bo'yicha masofaviy ta'lim kurslarini tashkil etuvchiga ham, ta'lim oluvchiga ham o'quv faoliyatini sifatli tashkil etishga xizmat qiladi. Bunda ta'lim oluvchilarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, masofaviy kurslarni to'liq ishlab chiqarishdan ajralmagan holda yoki ma'lum bir qismini ishdan ajralgan holda kunduzgi shaklda o'tkazishni nazarda tutish mumkin [5].

Tahlil bajarilgandan so'ng o'quv maqsadlarini, kurslar mazmuni, o'qitish shakllari, metodlari, vositalari, nazorat qilish usullarini aniqlashtirish zarur. Bu yong'in xavfsizligi bo'yicha masofaviy ta'lim kurslarini rejalashtirish, o'quv-metodik ta'minotini ishlab chiqishga kirishish imkonini beradi. O'quv maqsadlarini belgilashda mustaqil o'zlashtirishi mumkin bo'lgan mavzularni masofaviy ravishda mustaqil va murakkab mavzular, amaliy mashg'ulotlarni ishdan ajralgan holda korxonalarda o'tkazishni rejalashtirish mumkin.



Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, masofaviy kurslarni tashkil etuvchining mahorati – uzluksiz ta’lim tizimining barcha turlarining o’ziga xos xususiyatlarini to’g’ri tasavvur qilishi va ta’lim oluvchilar auditoriyasiga ko’ra “Kimni o’qitish kerak?”, “Nimani o’qitish kerak?”, “Qanday o’qitish kerak?” degan savollarga o’z o’rnida, javob topishi va to’g’ri qarorlar qabul qilishidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 9 sentabr kunidagi “Aholining barcha qatlamlarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibi to’g’risida” 754-sonli qarori . Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.09.2019 y., 09/19/754/3727-son.
2. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 20 oktabr kunidagi “Yong’in xavfsizligi qoidalari tasdiqlash to’g’risida” gi 649- sonli qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 21.10.2020 y., 09/20/649/1397-son.
3. Kasbiy ta’lim metodikasi. Axmetjanov M.M. va boshq. Buxoro- «Durдона» nashriyoti, 2020. 494 b.
4. Нарзиев Шовкиддин Муртозаевич, Рахимова Азиза Хусан Кизи ПРИМЕНЕНИЕ И АНАЛИЗ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ МЕТОДОВ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ // ТЕСНика. 2021. №1 (5). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/primenenie-i-analiz-pedagogicheskikh-metodov-v-uchebnom-protsesse> (дата обращения: 08.04.2021).
5. Дистанционное обучение. / Под ред. Е.С.Полат. – М.: Владос, 1998